

## FAMILY IS THE KEY TO THE COUNTRY'S BRIGHT FUTURE OF SOCIETY

SamSU, head of the Department of “State Legal Sciences” of the Faculty of law,

**Sadikova Yorkinoy Salijonovna**

[yorkinoy.sadikova@bk.ru](mailto:yorkinoy.sadikova@bk.ru)

SamSU, student of Group 102, Faculty of law

**Sharipov Arorjon**

[asrorjonsharipov777@gmail.com](mailto:asrorjonsharipov777@gmail.com)

***Annotation:** the role of the family in society , the effect of the work carried out in our country in order to prevent early marriage and divorce is covered in a comprehensive manner.*

***Keywords:** person, family , society , early marriage, marriage and family relations, divorce, rights and obligations of persons in the family.*

Oila ba’zi bir kishilar ongida shunchaki ikki kishining o’zaro munosabati deya tushunadilar. Aslida esa oila shunchaki ikki insonning rishtalar jamlammasi emas balki , qadim davrlardan buyon bizgacha yetib kelgan me’ros hisoblanadi.

Insoniyat paydo bo’lgan vaqtda ham urug’, qabilani shakllanishida oilaning o’rni juda ham muhim bo’lgan. Oila nafaqat jamiyatning, butun insoniyat rivojining tayanch ustuni hisoblanadi. Buning yaqqol namunasi sifatida bosh qomusimiz bo’lmish konstitutsiyamizda alohida bob ajratilgan. Oila- o’n uchinchi bob (63-66) – moddalarni o’z ichiga oladi. Oltmish uchinchi moddada oila jamiyatning asosiy bo’g’inidir. Hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo’lish huquqiga ega . Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi deya takidlanadi. Oilada barcha shaxslarning o’z burchlari huquq va majburiyatlari mavjud. Konstitutsiyamizning oltmish to’rtinchi moddasida ota – onalar farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota onalarining vasiyligidan mahrum bo’lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o’qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag’ishlangan xayriya faoliyatini rag’batlantiradi deya ta’kidlanadi. Shaxsan men o’zim oilada shaxslarning yuksak darajasi sifatida otaning o’rni yetakchi deya hisoblayman. Chunki har kimning fikri o’zgacha ba’zilar oilada ko’p mehnatni ayollar qilishadi tunlari uxlamay farzandlarini tarbiyalaydi deyishsa, ba’zilar otalarimizni yetakchi o’rinlarga qo’yamiz.

Hozirgi vaqtga kelib kattalar bilan o’zaro muloqotda bo’lgan vaqtimizda ko’pchilik avvalgi zamoni maqtashadi. Chunki u davrlarda otalarimizning aytgan so’zlari otilgan o’q misoli bo’lgan deya so’zlashadilar. Hozirgi kunda ham bunday oilalar yo’q emas, albatta mavjud. Yildan yil oshavergan sari erkak kishining oiladagi o’rni saviyasi juda ham pastlab ketmoqda. Ushbu aytayotgan fikrlaringa

ba'zi bir ayollar norozi bo'lishlari mumkin, lekin jamiyatimizda ba'zi bir oilalarda shu kabi holatlar uchrab turmoqda.

Yurtimizda hozirgi kunga kelib juda ham ajrimlar soni ko'payib bormoqda. Men birinchi galda ayblovni turmush qurayotgan shaxslarga emas, turmush qurayotgan shaxslarning ota - onalariga nisbatan noroziligim mavjud. Bu tangamizning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni esa to'y bazmlarimizning dabdaba orqali o'tishi. Bu millatimizni parokandalikka olib keluvchi illat hisoblanadi. Biz o'zimizga o'zimiz savol berishimiz kerak bizning avvalgi zamon tuyllarimiz qay tartibda bo'lgan? Kecha kim edim buncha dabdaba qilganimdan ko'ra farzandimni porloq kelajagini o'ylasam bo'lmaydimi.? Ba'zi bir shaxlar bor farzandining tuyini shunchaki qon qarindoshlar qo'ni qushni qirq elliktacha odamni chaqirgan holda o'tkazishadi. Ba'zilar bor shunchalik ham hoyu- havasga beriladiki, ularning bir kunlik tuyini deb qanchadan qancha ko'ngilsizliklar paydo bo'ladi. Mening fikrimcha buncha orzu havasga uchmasdan, farzandlarning kelajagini o'ylashsa eng maqbul yo'l deya hisoblayman.

Erta ajrimlar oilaning parchalanishini yaqqol misoli sifatida erda turmush qurish deb o'ylayman. Bunda shaxslar shunchaki rishta o'rnatish evaziga emas, azaldan mavjud bo'lgan qadriyatlarimiz orqali turmush qurganlari maqbul. Turmush o'z nomi bilan musht ya'ni kelgusidagi qiyinchiliklarga ikkala shaxsning ham sabr bardoshi, mashaqqatli yo'ldagi bahamjihatligi hisoblanadi hamda shuning evaziga paydo bo'ladi. Mashaqqatli yo'lda qiyinchiliklarga bardosh bera olmagan shaxslarning oilalari barbod bo'lmoqda, norasida go'daklar esa yetim qolmoqda. Quda andalar ham bunga be'etiboran farzandlarni tezda ajrashtirib yubormoqdalar. Ajrim ortidan azob chekayotgan norasida go'daklarda nima ayb? Ularning ham kelajagi bor axir. Turmush qurgan shaxslar turmush qurayotgan vaqtlarida yetarlicha xulosaga kelmagan, ba'zi bir yigitlar oilaboshining vazifa va funksiyalarini bilmaydi, ba'zi qizlarimiz esa erda tongda ko'cha supurish u yoqda tursin taom tayyorlashni bilmaydilar. Ba'zi bir qizlar kelin bo'lganlaridan so'ng yuqoridagi kabi kamchiliklarga uchrasa qaynona – qaynotasidan juda ham ko'p dakki eshitadi. yigit kishi esa ota onasining xohishiga qarshi bormasdan ayolini uyiga jo'natib yuboradi yoki bo'lmasa irodasi kuchli bo'lmasa erda ajrimga chorlaydi. Biz bunday hollarda faqatgina bir tomondan kamchiliklarini axtaravmasdan aybni o'zimizdan izlashimiz kerak. Turmush qurayotgan vaqtda ota onalarining ko'zi qayerda edi. Erda turmush qurgan yosh qizda nima ayb, balkim u o'zida yetarlicha hayot tajribasini to'plamagandir u ham ko'plab orzu umidlaridan voz kechib, yangi oilaga kelgan vaqtda bunday ko'ngilsizliklar albatta qizni ham yigitni ham qaddini bukmasdan quymaydi.

Ko'plab kishilar bilan muloqotda bo'lgan vaqtimda ba'zi bir kishilar yomonning bir yaxshi tomoni bo'lgani kabi erda turmushni maqtashadi. Bunga

sabab deya so'ragan vaqtimda men erta turmush qurdim, turmush qurganimdan so'ng mening ishlarim( ya'ni moliyaviy ) jihatdan rivojlanib ketdi deya so'zlab berishadi hamda sizga ham erta turmush qurishni taklif qilishadi. Men bu fikrlarga juda ham qarshiman. Negaki biz voyaga yetganimizdan so'ng hayotning og'ir yengilidan o'zimizga yetarlicha xulosa chiqarishimiz kerak. Hayotda uning yengil tomonlarini o'ylamasdan , ozgina bo'lsa ham qiyinchilik ko'rishimiz va albatta kelgusi hayotimizda yuzaga keladigan kamchiliklarning yechimini izlashimiz kerak . Hozirdan o'zimizdan xulosa chiqarib, sabr bardosh orqali yechim topadigan bo'lsak, ertangi hayotimizda hech qanday ko'ngilsizliklarga duch kelmaymiz deb o'ylayman.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning, “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayapman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!” – deb ta'kidlab o'tgan bu kabi fikrlari yurtimizdagi islohotlarning, jamiyatda oilaning tutgan o'rnini, farzandlarni kamolga yetkazishda boshlang'ich bo'g'in oilaning muqaddas dargoh ekanligini belgilab beradi. Hozirgi kunga kelib yurtimizda olib borilayotgan istiqbolli ishlar natijasi o'laroq erta ajirimlarni oldini olish maqsadida yarashtiruv komissiyalari tashkil etilmoqda. Bir bolaga yeti mahalla ota ona deganlaridek mahalliy davlat hokimiyatchiligi organlarida ham qizg'in ishlar olib borilmoqda. Mahalla vakillari tomonidan erta nikoh masalalari, uning yakuni yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Bu kabi ishlar jamiyatning faravon kelajagimizning kaliti bo'lmish oilaning tutgan orni mavqeyini belgilab beradi. Zeroki ertamiz kelajagi bo'lmish farzandlarimizni kamolini toptirish , jamiyatda o'z o'rnini egallash kabi maqsadlarni o'zida ifoda etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. “Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent - 2021
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O'zbekiston NMIU 2021. 21-22 b
3. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 30.04.1998

#### **Foydalanilgan electron resurslar :**

1. [http// www.xabar.uz//](http://www.xabar.uz//)
2. [www.lex .uz](http://www.lex.uz)